

AN'ANAVIY XONANDALIK SAN'ATINING TARIXIY SHAKLLANISH
BOSQICHLARI

Sayfullayeva Nilufar

Bux.DU “Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) mutaxassisligi,

1-bosqich magistri

Ilmiy rahbar: B.I. Mustafayev, professor

Annotatsiya: maqolada an’anaviy xonandalik san’ati, uning tarixiy rivojlanishi, kasbiy musiqqa maktablarning shakllanishi, an’anaviy ijrochilik maktablari, zamonaviy an’anaviy xonandalik kabi masalalar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit soʻzlar: an’anaviy xonandalik, xalq ogʻzaki ijodi, zamonaviy ijrochilik maktablari, musiqiy an’analar, ijro uslublari, xalq va zamonaviy uslub.

An’anaviy xonandalik san’ati — xalqning ma’naviy madaniyati, musiqqa ta’rixi va ijodiy didi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan san’at turidir. U oʻzining koʻp asrlik tarixiy rivojlanish jarayonida xalq ogʻzaki ijodi, maqom san’ati va zamonaviy ijrochilik maktablari orqali takomillashib kelgan.

Mustaqillik yillarida oʻzbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targʻib etish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e’tibor tuygʻularini kamol toptirishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Oʻzbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-3391-sonli Qarorda “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy oʻzlikni anglash tuygʻusi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qoʻyildi [1].

Qarorga binoan Shaxrisabz shahrida 2018 yilning 6-10-sentabr kunlari oʻtkazilgan Xalqaro maqom san’ati anjumani katta ahamiyatga ega boʻldi. Prezidentimizning Xalqaro Maqom san’ati anjumani ochilish marosimida soʻzlagan nutqida: “Maqom ohanglari, maqom ruxi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-oʻsib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” ekanligi alohida ta’kidlanib, “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, oʻrganmoqchi boʻlsak, avvalo mumtoz maqom

san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak". "Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak" ligi alohida e'tirof etildi [2].

An'anaviy xonandalik san'ati uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning ibtidoiy bosqichi — xalq og'zaki ijodi davridir. An'anaviy xonandalik san'atining ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Qadim zamonlarda qo'shiqlar mehnat, bayram va marosimlarga hamroh bo'lgan. Xonandalar asosan tabiiy ovoz sohiblari bo'lib, qo'shiqlarni rubob, dutor va doyra kabi oddiy sozlar bilan ijro etganlar. Bu davrda musiqa asosan odat, an'ana va hissiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan.

Kasbiy musiqa maktablari shakllanish davri IX–XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Islom madaniyati va ilmiy markazlarning yuksalishi natijasida musiqa nazariyasi shakllandi. Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin-al Urmaviy kabi olimlar musiqa ilmini ilmiy asosda o'rgandilar. Bu davrda xonandalik san'ati ilmiy tizimga ega bo'lib, maqom yo'nalishlari vujudga keldi. Xonandalarning ijrosi nafaqat hissiyot, balki bilim va uslubga ham tayana boshladi.

Maqom va saroy musiqasi davrlari (XV–XIX asrlar)da an'anaviy xonandalik san'atining rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Bu bosqichda an'anaviy xonandalik yuksak darajaga yetdi. Shashmaqom, Farg'ona–Toshkent, Xorazm maqomlari kabi yo'nalishlar shakllandi. Xonandalar maqom qoidalariga amal qilgan holda, ovoz imkoniyatlarini takomillashtirdilar. Bu davrda xonandalik faqat xalq ichida emas, balki saroy va ilmiy davralarda ham ijro etildi. Xonandalar ijrochilik maktablarini yaratib, an'analarni avloddan-avlodga yetkazdilar.

Mang'it amirlari davrida Buxoroda ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morchilik, xattotlik, hunarmandchilikning rivojlanishida sulola vakillarining ibratli ishlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o'zining "Maqomot" kitobida Amir Muzaffarxon, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlarning sozparvarligi va ularning musiqa san'atiga ixlosi baland bo'lganligini ta'kidlab, Amir Muzaffarxonning malakali maqomxon, hofiz va sozandalar tayyorlash maqsadida Buxoroda maxsus Shashmaqom maktabini tashkil etganligini aytib o'tadi [3, 58].

Professor Fayzulla To'rayevning yozishicha; " Said Olimxon ham ota-bobolari singari soz san'atiga, hofizu mutriblarning iste'dod va qobiliyatlariga befarq bo'lmagan. U o'tmish ajdodlari kabi o'z saroyida maqomxon ustozlarni to'plab,

Shashmaqomni mukammallashtirish va uni asrab-avaylab, keyingi avlod vakillariga yetkazishga alohida e'tibor bergan [4,17].

XX asr boshlarida an'anaviy xonandalik sahna san'atiga aylandi. Konsertlar, teatr va radio orqali xalq musiqasi ommaviylashdi. Xonandalar maxsus musiqa ta'limi ola boshladilar. Maqom va xalq qo'shiqlari yangi zamonaviy ijrochilik uslublari bilan boyidi. Xamza Hakimzoda Niyoziy, To'ychiboy Xofiz, Mo'min Hofiz kabi san'atkorlar milliy musiqamizning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Zamonaviy an'anaviy xonandalik (XX asr oxiri – XXI asr) san'ati takomil topgan yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Hozirgi davrda an'anaviy xonandalik kasbiy darajada o'qitilib, milliy madaniyatimizning muhim qismiga aylandi. Radio, televideniye va internet orqali an'anaviy ijro uslublari yanada keng tarqalmoqda. Xonandalar an'anani saqlagan holda yangi ijrochilik uslublarni yaratishga intilishmoqda. Bu jarayonda xalq va zamonaviy musiqa o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlanmoqda.

Xullas, an'anaviy xonandalik san'ati — xalqning madaniy merosi, ruhiy olami va milliy o'zligini ifoda etuvchi qadriyatdir. Uning tarixiy shakllanish bosqichlari orqali nafaqat musiqa an'analari, balki xalqning dunyoqarashi, ta'lim va madaniyat darajasi ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda an'anaviy xonandalik nafaqat milliy, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbekiston milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ - 3391-sonli qarori // "Xalq so'zi". 2017. - 18-noyabr.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ning ochilish marosimidagi nutqi // "Xalq so'zi". 2018 y. - 7-sentabr.

3. Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар (Сайланма). Тошкент "Наврўз" нашриёти. 2018 й. – Б.58.

4. Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар (Сайланма). Тошкент "Наврўз" нашриёти. 2018 й. -Б. 17.

5. Mustafayev B.I. Maktabda musiqiy ta'lim faoliyatlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2025, vol.3. - B.175-184

6. . Mustafoyev B. Methods Of Using Innovative Technologies in Developing Acmeology Of School Music Teachers. INTELEKTUALITAS: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan: Volume 2, Number 1, 2025, Page: 1-6.